JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 23 - dekabr 383-3-53-Q/22 Forish tuman hokimligi

Forish tumani O`zbekiston MFY “Bog`ishamol” va “Dostlik” ko`chalariga sun’iy yo‘l notekisligi va yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tumani ichki ishlar bo`limining 2022 yil 28 noyabrdagi №-42/429-sonli xati ma`lumot uchun qa`bul qilinsin va maqullansin.

2. Tumandagi O`zbekiston MFY hududidagi “Bog`ishamol” va “Dostlik” ko‘chalariga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisliklari va yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (X.Jo`raqulov)ga ilovaga muvofiq sun`iy yo`l notekisliklari va yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari

shart.

5. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **И.Матиев**

Forish tuman hokimining
2022 yil 23 dekabrdagi
383-3-53-Q/22-son qaroriga
1-ilova

O`zbekiston MFY “Bog`ishamol” va “Do`stlik” ko`chalariga o`rnatiladigan sun`iy yo`l notekisliklar joylashuvi dislokatsiyasi

	MFY nomi	Ko`cha nomi	Joylashtirish joyi "PK"		Soni	Yo`l belgisi nomi
1	O`zbekiston MFY	"Bog`ishamol"	00+40	01+50	2	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi
2	O`zbekiston MFY	"Do`stlik"	01+00	01+50	2	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi